

TALABALARNI KLINIK FIKRLASH KOMPETENSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK FUNKSIYALAR

Isroilov Farxodjon Ilxomjon og'li

Central Asian Medical University Xalqaro tibbiyot universiteti

“Gigiyenik va tibbiy jarayonlarni modellashtirish”

kafedrası o'qituvchisi


<https://doi.org/10.5281/zenodo.17424281>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tibbiyot ta'limi kontekstida klinik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda intellektual, motivatsion, emotsional va predmetli-amaliy sohalarining o'zaro integratsiyalashgan ta'siri tahlil qilinadi. Kliniko-pedagogik hamkorlik, talabalarda kasbiy o'zlikni anglash, tanqidiy fikrlash, emotsional barqarorlik, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish kabi muhim jihatlar klinik tafakkur kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, klinik kompetensiyalarning shakllanishida empatiya, professional mas'uliyat, refleksiv yondashuv va multidissiplinar hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada talabaning kasbiy shakllanishi jarayonida klinik fikrlashni yuksaltirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik shartlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: klinik fikrlash, klinik tafakkur, ijtimoiy-tibbiy bilimlar, emotsional soha, omillar.

Motivatsion soha insonning butun hayoti davomida shakllanadigan va dinamik tarzda rivojlanadigan ehtiyojlar, ichki rag'batlar, qadriyatlar va maqsadlar majmuasini o'z ichiga oladi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan “Psixologiya va pedagogika” fani misolida tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu faning ustuvor vazifalaridan biri talabalarda shifokorlik faoliyatiga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish orqali, jamiyat salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdan iboratdir. Kasbiy motivatsiya talabalarda nafaqat kasbiy faoliyatga bo'lgan intilishni, balki shaxsning o'zini-o'zi anglashini, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatini teran his etishini ham taqozo etadi. Ayniqsa, shifokorlik faoliyati motivlarining shakllanishi klinik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, chunki maqsad qo'yish va unga erishish ko'nikmalari shifokorning tashxis qo'yish, davolash va profilaktik qarorlar qabul qilish jarayonlarida samaradorlikni belgilab beradi. Shu bois motivatsion sohaning shakllanganligi talabalarning kelgusidagi kasbiy o'sishi, klinik tafakkurining yetukligi hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini yuksaltirishda asosiy psixologik-pedagogik shartlardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayonda shifokorlik faoliyati motivlarining shakllanishi, maqsad qo'yish va unga erishish kompetensiyasining rivojlanishi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.



Emotsional soha inson psixikasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u emotsiyalar, hissiy kechinmalar, o'z-o'zini baholash va tashvishlanish darajasini o'z ichiga oladi. Emotsiyalar shaxsning ehtiyojlari va intilishlari qondirilishi yoki qondirilmaslari bilan bevosita bog'liq bo'lib, sub'ektiv kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Ijobiy emotsiyalar ehtiyojlarning to'liq qondirilishi va faoliyat maqsadiga muvaffaqiyatli erishish jarayonida yuzaga keladi hamda shaxsning keyingi faoliyatini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Insonning ehtiyoj va motivlari bilan uzviy bog'liq voqelik hodisalari ahamiyatini ifodalovchi barqaror hissiy munosabatlari hissiyotlar deb yuritiladi.

Psixolog olim B.Turg'unov tadqiqotida emotsional sohaning shaxs faoliyatiga kuchli ta'siri borligi qayd etilgan. Jumladan, emotsional tajriba shaxsning irodaviy qarorlarini, motivatsion barqarorligini va kognitiv faoliyatini kuchaytiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, shifokorlik faoliyati kontekstida empatiya, kasbiy mas'uliyat, bemorga nisbatan gumanistik yondashuv, mehr-shafqat va psixologik barqarorlik shaxsning emotsional sohasining yetukligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida ko'riladi.

Olima Sh.Mirzayeva tadqiqotida esa shifokor shaxsida emotsional madaniyatni shakllantirish, stressga bardoshlilik va emotsional intellektni rivojlantirish tibbiy ta'limning muhim maqsadi sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Demak, emotsional sohaning rivojlanganligi klinik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki emotsional barqarorlik va ijobiy hissiyotlar tibbiy qaror qabul qilish jarayonida shifokorning muloqot madaniyatini, bemor bilan samarali aloqa o'rnatish qobiliyatini va professional faoliyat samaradorligini oshiradi. Aksincha, befarqlik, professional nigilizm, ortiqcha xavotir yoki emotsional charchash kabi holatlar klinik faoliyatning sifatini pasaytirishi, bemor ishonchi va tibbiy xizmat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, emotsional kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Salbiy emotsional reaksiyalarni yuzaga keltiruvchi omillar qatoriga shaxsiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklar, qo'yilgan maqsadlarga erisha olmaslik holatlari kiradi. Bunday vaziyatlarda emotsional zo'riqish kuchayadi hamda shaxs ushbu zo'riqishni yuzaga keltirgan sharoitdan chetlashish orqali salbiy ta'sirni kamaytirish yoki bartaraf etishga intiladi. Emotsional sohaning o'ziga xos jihatlaridan biri xavotirlanuvchanlik bo'lib, u kasbiy va shaxsiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu faoliyat ko'pincha muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan va noaniqlik hamda xavf ehtimoli mavjud vaziyatlarga emotsional javob berish bilan bog'liqdir. Yuqori darajadagi xavotirlanuvchanlik bezovtalik, o'z faoliyatining to'g'riligiga shubha, agressivlik, umidsizlik va beqarorlik kabi holatlar orqali namoyon bo'lishi mumkin hamda bu, o'z navbatida, zo'riqish vaziyatlaridan qochish istagini kuchaytirib, kasbiy motivatsiyaning keskin pasayishiga olib keladi.

Talaba-yoshlarning individual sifatlari motivatsion va emotsional sohalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi klinik tafakkur kompetensiyasini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, o'ziga ishonch va qat'iyatlilik kabi irodaviy sifatlar insonning kasbiy faoliyatda uchraydigan psixologik bosim, ijtimoiy kutilmalar, tashqi ta'sirlar va stressli vaziyatlarga bardoshlilikini ta'minlaydi. Ayniqsa, tibbiyot sohasi talabalari uchun ushbu irodaviy va emotsional sifatlarning rivojlanganligi shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini namoyon etishda, samarali klinik qaror qabul qilishda hamda shaxsiy professional kompetensiyani yuksaltirishda muhim psixologik-pedagogik shart sifatida qaraladi.

Shu boisdan ham bo'lajak shifokor o'z klinik faoliyatida biologik-instinktiv ehtiyojlarni emas, balki professional va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yib, bemor manfaatlari asosida qaror qabul qilishni va o'z harakatlarini maqsadga yo'naltira olishni bilishi zarur. Klinik vaziyatlarda shifokorning irodaviy o'z-o'zini boshqarishi, emotsional barqarorligi, murakkab klinik qarorlarni qabul qilishda mustaqil va mas'uliyatli pozitsiyani egallashi tibbiy ta'limning asosiy natijalaridan biridir. Zero, mas'uliyat hissining shakllanishi nafaqat o'zining, balki bemorning hayoti va sog'lig'i uchun javobgarlikni chuqur his qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Tibbiyot talabasi klinik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida tashqi bosimlar, vaqt tanqisligi, noaniq klinik belgilar, murakkab tashxisiy vaziyatlarda ham mustahkam iroda va professional intizom namoyon eta olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, u klinik qaror qabul qilishda tibbiyot jamoasi, hamkasblar va sog'liqni saqlash tizimi bilan hamkorlikda faol ishtirok etishi, dalillarga asoslangan yondashuvni ustuvor qo'yishi kerak.

Klinik ta'lim jarayoni talabalarga nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, refleksiv yondashuv hamda o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa bemor bilan muloqot jarayonida empatiya, axloqiy me'yorlarga amal qilish, klinik qarorlar oqibatini oldindan ko'ra bilish kabi ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Shuningdek, klinik fikrlash muvaffaqiyatsizlik sabablarini tashqi sharoitlardan izlash emas, balki diagnostik va terapevtik faoliyatda yuzaga kelgan muammolarni o'z tahliliy xatolari, klinik qaror qabul qilishdagi kamchiliklar orqali tushunishga o'rgatadi. Aynan shunday yondashuv bo'lajak shifokorning professional refleksiyasini kuchaytirib, uni yuqori darajadagi klinik kompetensiyaga olib keladi.

Predmetli-amaliy soha o'z ichiga shifokorlik faoliyati va klinik muloqotning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladigan kasbiy kompetensiyalar, klinik ko'nikmalar va amaliy faoliyatni qamrab oladi. Klinik kompetensiya talabani diagnostika, davolash va profilaktika

jarayonida namoyon etiladigan qobiliyatlarini tavsiflab, bemorga ta'sir o'tkaza olish, aniq klinik maqsadlarga erishish uchun sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlarga moslashish, zarur bo'lgan ilmiy-amaliy axborotni qabul qilish, tahlil etish va qo'llashga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Tibbiy ta'lim jarayonida rivojlangan predmetli-amaliy soha talabalarga axloqiy-professional, deontologik va klinik xulq-atvorni amalga oshirish, shifokorlik faoliyatida o'z namunali kasbiy odobi orqali mas'uliyatli munosabatni ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, talaba o'zining yoki boshqa mutaxassislarning klinik faoliyatini, professional etika va kasbiy mas'uliyat jihatidan baholash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Klinik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni pedagogik tayanch va insonparvarlik tamoyillari asosida quriladi - bunda talabalarda klinik muloqotga kirishish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kasbiy tarbiya olish, axloqiy erkinlik, multidissiplinar hamkorlik hamda tibbiyotda tolerantlikni ta'minlashda shifokor tanlov erkinligini tan olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlar tibbiy ta'lim oluvchilarning ekzistensial-professional sifatleri mohiyatini belgilab beradi.

Klinik kompetensiya esa shifokor nomzodining o'z taqdirini bemorlar, sog'liqni saqlash tizimi va butun jamiyat taqdiri bilan uzviy bog'liq ekanligini anglashdan kelib chiqadi. Talaba o'zining kasbiy muvaffaqiyatiga faqatgina sog'liqni saqlash jarayonlarida o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanganida erishishi mumkinligini, ya'ni shaxsiy professional yutuqlar jamiyat va sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishidan ajralmasligini tushunishi lozim.

Talabaning kasbiy o'sishi, klinik fikrlashni rivojlantirish jarayonida u sog'liqni saqlash taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishga ko'maklashadi hamda tibbiyot tizimi rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Olimlarning ilmiy mulohazalarini umumlashtirish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, klinik hamkorlikda ta'lim - bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi amaliy klinik faoliyat, tibbiy muloqot va diagnostik-davolash jarayonidagi interaktiv hamkorlik tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologiya va pedagogika fanida talabalarda shaxsiy-professional sifatleraning rivojlanishida kliniko-pedagogik hamkorlikning quyidagi jihatlari alohida ta'kidlab o'tilgan: pedagogik-psixologik hamkorlik faoliyatiga kirishish; talabaning o'qituvchi bilan klinik jarayondagi hamkorlik orqali namoyon qiladigan individual sifatleri asosida amalga oshirish; o'qituvchi klinik mentor sifatida faoliyatni boshlab beradi va unga talabalarning jalb etilishini ta'minlaydi; talaba o'qituvchidan klinik faoliyatda namuna olib, kasbiy harakatlarini shakllantiradi; o'qituvchi talabaning o'z-o'zini boshqarishida kasbiy refleksiv faoliyatlarini nazorat qilishda ishtirok etadi; talabalar o'z-o'zini faollashtiruvchi, o'z-o'zini tashkil etuvchi va refleksiv-klinik harakatlarni amalga oshiradi.

Shu tariqa, tibbiy ta'lim oluvchilar uchun klinik kompetensiyaning mazmuniy ko'rsatkichlari individual-professional sifatlar orqali yangi islohotlar, kasbiy yangilanishlar va shaxsiy klinik kompetensiyalarni o'zlashtirishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Epstein, R. M. (2007). *Assessment in medical education*. New England Journal of Medicine.
2. Norman, G. (2005). *Research in clinical reasoning: past history and current trends*. Medical Education.

3. Kassirer, J. P. (2010). *Teaching clinical reasoning: case-based and coached*. Academic Medicine.
4. Eva, K. W. (2004). *What every teacher needs to know about clinical reasoning*. Medical Education,
5. Boud, D., Keogh, R., & Walker, D. (1985). *Reflection: Turning Experience into Learning*.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
7. Isroilov , F. . (2025). KLINIK FIKRLASH KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(15), 54–56.